

YOUTUBE IJTIMOYIY TARMOG'INING JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI

Anvarova Muqaddas Xomidjon qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi 3- kurs talabasi

Annotatsiya: Youtube platformasining ham anchagina foydalanuvchilari mavjud. Dunyoda Facebookdan keying o'rinda turuvchi bu platformaga bundan 19 yil muqaddam asos solingan bo'lib, Bugungi kunda ya'ni 2024 yil fevral holatiga ko'ra uning mushtariylari soni 2,7 milliard foydalanuvchiga yetdi. Bundan ko'rinib turibdiki, internet foydalanuvchilarining 52 foizi kamida oyda bir marta bo'lsa ham ushbu platformadan foydalanadi.

Kalit so'zlar: *Youtube, Facebook, Ijtimoiy tarmoqlar, "Qoraqalpoq mojarolari"*

Ijtimoiy tarmoqlarning kun sayin rivojlanib borayotgani barchamizga ayon. Shular qatorida Youtube platformasining ham anchagina foydalanuvchilari mavjud. Dunyoda Facebookdan keying o'rinda turuvchi bu platformaga bundan 19 yil muqaddam asos solingan bo'lib, Bugungi kunda ya'ni 2024 yil fevral holatiga ko'ra uning mushtariylari soni 2,7 milliard foydalanuvchiga yetdi.

Bundan ko'rinib turibdiki, internet foydalanuvchilarining 52 foizi kamida oyda bir marta bo'lsa ham ushbu platformadan foydalanadi. Shu sababdan ham Youtubega kuniga jami 720 ming soatlik video yuklanadi va YouTube'dagi barcha foydalanuvchilar tomonidan ko'rilgan videolarning umumiy miqdori kuniga 1 milliard soatdan ko'proqqa to'g'ri keladi¹⁰. Shuning uchun ham Youtube platformasi jamoatchilik fikrining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ushbu platforma orqali uzatilayotgan kontentlar ommaviy muhokamalarga sabab bo'lib, jamoatchilik fikrini shakllantirib yubormoqda. "Arab bahori", "Wall street", "Isroil-Falastin", "Rossiya – Ukraina" urushlari hamda "Qoraqalpoq mojarolari" kabi voqealar esa bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari, Turkiyada sodir bo'lgan kuchli zilzila va gazli voqealarini ham o'z ichiga oladi. Shu o'rinda savol tug'ilishi Tabiiy holat, ya'ni bu qanday voqealar o'zi? , jamoatchilik fikriga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin? va hokazolar. Keling birma-bir ularni ko'rib chiqamiz.

"Arab Bahori" – 2010-yil oxirida arab dunyosida boshlangan qator norozilik namoyishlariga berilgan nomdir. Ular Tunis, Misr, Yaman, Jazoir, Iordaniya, Mavritaniya, Saudiya Arabistoni, Ummon, Sudan, Siriya, Liviya hamda Marokash kabi mamlakatlarni qamrab oldi¹¹. Bu voqealar 2010 – yilda sodir etilgan bo'lsa-da, bugungi kunda bir qator tadqiqotchilar Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarida birin-ketin sodir bo'lgan inqiloblar xususida hali hanuz bahs-munozaralar olib borishadi. Voqealar rivojining paydo bo'lishi va ommalashishi ushbu hodisalarni "inqilob" deb atashga sharoit yaratdi. Bu hodisalarni g'arb OAV "arab bahori inqilobi" deb atasa, boshqalari "arab bahori va qishi",

¹⁰<https://www.trthaber.com/haber/bilim-teknoloji/youtube-27-milyar-kullaniciya-ulasti-837448.html>

¹¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Arab_bahori

“arab uyg‘onishi”, “panarab inqilobi”, “arab isyoni” kabi tushunchalar bilan nomlashadi¹². “Arab bahori” voqealarining paydo bo‘lishi xususida esa turli xil munozaralar va bahsli holatlar borligini ko‘rish mumkin.

Ba’zi bir tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bugungi “arab bahori” va “arab uyg‘onishi” kabi tushunchalarni o‘rganishda arab jamiyatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos tarixiy xususiyatlarini tahlil qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Arab olamidagi to‘natarishlarni tadqiqotchilar ommaviy tartibsizliklarning uchta to‘lqini sifatida baholashadi. Arab ommaviy isyonlarining birinchi to‘lqini 1914-yilda sodir bo‘ldi va “Buyuk arab inqilobi” nomi bilan ataldi. Sharif Husayn rahbarlik qilgan ushbu inqilobning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning asosiy mo‘ljali arab dunyosida Usmonlilar imperiyasini tugatishga qaratilgan edi. Ushbu to‘lqin ikkita asosiy hodisa bilan muvofiq keladi – global va mintaqaviy.

Birinchi jahon urushi asosiy global hodisa hisoblansa, Usmonlilar imperiyasining tugatilishi asosiy mintaqaviy hodisa edi¹³. Britaniya imperiyasi tomonidan qo‘llabquvvatlangan ushbu inqilob to‘lqinining asosiy sababi Usmonlilar imperiyasini mintaqada mavjudligini yo‘qotish hisoblangan.

Arab bahori deb nom olgan ommaviy isyonlarining ikkinchi to‘lqini XX asrning 50-60-yillarida sodir bo‘ldi va aynan 1959-yilda fransuz yozuvchisi Jak Benua Meshin tomonidan “arab bahori” atamasi foydalanildi.

U o‘zining 1959-yilda nashr etilgan “Un Printemps Arabe” nomli maqolasida Yaqin Sharqda sodir bo‘lgan arab isyonlarini tasvirladi va ularni 1848-yildagi “millatlar bahori” yoki “xalqlar bahori” nomi bilan mashhur Yevropa inqiloblari bilan bog‘lashga harakat qildi¹⁴. Xuddi birinchi to‘lqin singari ikkinchi to‘lqinga ham asosiy global va mintaqaviy hodisalar muvofiq keladi. Asosiy global hodisa Ikkinchi jahon urushi hisoblansa, asosiy mintaqaviy hodisa arab dunyosining markazida Isroil davlatiga asos solinishi edi.

O‘sha vaqtlarda Isroil davlatining “sionizm”iga qarshi boshqa bir ya’ni “arabizm” shiori asosiy o‘rinni egalladi. Arab isyonlarining ikkinchi to‘lqini va arabizm shiorini, asosan Misrning sobiq Prezidenti Jamol Abdul Nosir nomi bilan bog‘lashadi.

O‘z navbatida, arabizm g‘oyalarini keng yoyilishida Baas partiyasining ham o‘rni katta bo‘lgan. Ayrim nuqtayi nazaricha, ushbu davrda tashqi kuchlarning o‘z intervensiyasi va gegemonligi kuchaygani sari mintaqada arab millatchiligi ham kuchaya boshladi¹⁵.

Arab ommaviy chiqishlarining uchinchi to‘lqini 2010-yil 17-dekabrda Tunisda meva sotadigan savdogar Muhammad Buazzaziyning politsiya o‘zboshimchaligi va poraxo‘rligiga qarshi norozilik bildirib, Sidi-Buzid shahar maydonida namoyishkorona o‘z-o‘ziga o‘t qo‘yishi natijasida boshlandi.

Tunis to‘ntarishi muvaffaqiyatli tugaganligi sababli, norozilik to‘lqinlari Misr, Liviya, Suriya, Iroq, Bahrayn, Yaman, Iordaniya, Marokash, Jazoir, Ummon, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Sudan, Mavritaniya va boshqa arab mamlakatlariga yoyilib ketdi. Arab dunyosidagi namoyishlarning asosiy shiori “Odamlar rejimni qulatishni istashadi” (Ash-

¹² Подгорнова Н. П. “Арабская весна” в странах Магриба. – М.: 2014. – Б. 4

¹³ Mehmet Sahin, ‘1950-1960 Arab Revolutions and the 2011 Arab Spring: Similarities and Differences’, in *New World Order, Arab Spring and Turkey*, B. Senem Cevik- Ersaydi and Bora Baskak (eds.), Ankara: Ankara University Center for the Study and Research for Political Psychology, 2012. – P. 3-5

¹⁴ Jacques Benoist-Méchin. *Un Printemps Arabe (An Arab Spring)*, Paris: Albin Michel, 1959

¹⁵ Fadi Elhousseini. *Post Arab Spring Thoughts: The Middle East between external and internal mechanisms (Political Economic & Social Forces)*. Polish Academy of Sciences. November 2013. – P. 5.

sha'b yurid isqat an-nizam) bo'ldi. Shu tariqa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarida ommaviy tartibsizliklarning ketma-ket avj olishi "arab bahori" degan atamaning paydo bo'lishiga zamin yaratdi¹⁶.

Umumiy ma'noda, "Arab bahori"ning o'ziga xos xususiyati haqida ta'kidlaydigan bo'lsak, ushbu hodisalar o'z-o'zidan sodir bo'lmasdan, balki tashqi kuchlar ta'siri orqali pinhona uyushtirilgan voqealar mahsuli ekanligini ko'rish mumkin.

Bularning barchasi o'sha davrda jamoatchilik fikrini shakllantirishda biro mil bo'lib xizmat qilgan. Insonlar onggiga ta'sir qilib, ularni fikrlashga undagan. Shu sababli, yuqorida ta'kidlangan sabablar vositasida "arab bahori" atamasi ishlab chiqilganligini qayd etish mumkin. "Arab bahori"ga o'n bir yildan oshgan bo'lsa-da hali hamon uning aks-sadosi ko'pchilikni hushyorlikka chorlaydi.

Qo'shimcha qilib, "Isroil-Falastin" urushlarini ham keltirib o'tishimiz lozim. Sababi bugungi kunda dolzarb mavzuga aylandi va jamoatchilik fikriga o'z ta'sirini ko'rsata oldi. "Isroil-Falastin" urushlari o'zi nima sababdan kelib chiqdi? degan savol hammani o'zi jalb etishi tabiiy.

Chunki bu urush bir necha asrlardan beri davom etib kelayotgan voqealardan biri hisoblanadi.

Biz esa eng so'nggi ma'lumotlarni tahlil qilamiz ya'ni Isroil-Hamas urushi¹⁷. Bu urush 2023-yilning 7-oktyabrida Hamas boshchiligidagi falastin kutilmaganda Isroilga muvofiqlashtirilgan hujum uyushtirganidan keyin boshlangan harbiy to'qnashuv hisoblanadi.

Hujum ertalab Hamas boshqaruvidagi G'azo sektoridan Isroilga kamida 5 000 ta raketa otilishi bilan boshlandi.Parallel ravishda taqriban 2 500 nafar falastinlik jangarilar G'azo-Isroil to'sig'idan o'tib, qo'shni Isroil hududlarida tinch aholi vakillarini asirga oldi.

Natijada kamida 1 400 nafar isroillik nobud bo'ldi, jumladan, "Re'im" musiqa festivalining 260 nafar ishtirokchisi.

Qurollanmagan tinch aholi vakillari, jumladan, ayollar va bolalar hamda qo'lga olingan Isroil askarlari G'azo sektoriga olib ketildi.

Isroil bunga javoban havo zarbalarini bera boshladi va oradan bir kun o'tib Hamasga rasman urush e'lon qildi.

Hamas hujumlarini sukkot yahudiy bayrami yakunida, 1973-yilda Yom Kippur urushi boshlanganiga roppa-rosa 50 yil to'lgan kunda boshladi.¹⁸

Keyinchalik bu mojarolar keng ommani o'ziga jalb etdi va sekin-astalik bilan jamoatchilik fikri shakllana boshladi. Isroilga ko'plab yahudiy mamlakatlar o'z yordam qo'lini cho'zdi.


Bu esa o'z navbatida, musulmon davlatlar orasida yahudiy tavarlarga bo'lgan qarashlarni o'zgartirib, baykot e'lon qilinishiga sabab bo'ldi.

Asta sekinlik bilan esa jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazib, fikr shakllanishiga olib keldi. Bu holatlar dunyoning ko'plab brendlari uchun yaxshigina talofatlar olib keldi. (3 – rasm)

¹⁶ The Arab Spring. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arab_Spring


¹⁷ „Israel Army Fires Artillery at Lebanon as Hezbollah Claims Attack“ 2023-yil 8- oktabr

¹⁸ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Isroil-Hamas_urushi



3-rasm. “Isroil-Falastin” urushidan so‘ng yahudiy mahsulotga nisbatan e‘lon qilingan baykot mahsulotlar

“Isroil-Falastin” urushining keng omma oldida namoyish etilishi esa ko‘plab etirozlarga sabab bo‘ldi. Insonlar orasida falastinga yordam qo‘lini cho‘zmoqchi bo‘lganlar soni tobora oshib ketdi. Bu holatlarning barchasiga esa ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan xabarlar sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim ekanligini isbotladi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda #hammaning_nigohi_G‘azoda heshtegi ostidagi chellenj tarqaldi va bu chellenjda dunyo bo‘ylab deyarli 48 millionga yaqin inson ishtirok etib, falastinni qo‘llab - quvvatladi. (4 – rasm)



4-rasm. #hammaning_nigohi_G‘azoda heshtegi ostidagi tarqalgan chellenj

Bundan tashqari, “Rossiya-Ukraina” urushlari ham xuddi “Isroil-Falastin” mojarolari kabi jamoatchilik fikriga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Shuning uchun ham butun dunyo hamjamiyatining asosiy e‘tibori Rossiya va Ukraina harbiy mojarosiga qaratilgan. Albatta, bu bejizga emas. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng bir demokratik davlat hududiga ikkinchi bir davlat harbiy intervensiya uyushtirishi kuzatilmagandi. 1945-yil BMT tashkil topganidan so‘ng o‘rnatilgan yangi dunyo tartiboti o‘zagarish arafasida turibdi. Rossiyaning Ukraina bosqini g‘arb davlatlari, AQSH va NATO tomonidan keskin tanqid

qilnmoqda va Rossiyaga agressiyasini jilovlash uchun unga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar paketini qo'llamoqda. Bu esa Rossiya iqtisodiyoti jar yoqasiga olib borib qo'yishi mumkin.¹⁹

Biroq, nemis xavfsizlik ekspertlarining fikricha, Rossiyaning bosqinchiligi nafaqat Ukraina suverenitetiga tahdid soladi, balki butun geosiyosiy tartibni buzadi. "Bugun deyarli hamma narsa kechagidan farq qiladi", dedi DW nashriga Halle universiteti siyosatshunosi Yoxannes Varvik. "Biz endi bloklarning o'ziga xos qarama-qarshiligiga qaytdik, faqat G'arbiy blokning chegaralari sovuq urush davriga nisbatan sharqqa siljidi. Yevropada tinchlik o'tmishda qoldi, Rossiyaga ishonch esa butunlay yo'q qilindi. G'arb va Rossiya o'rtasidagi ishonchni tiklash uchun o'nlab yillar kerak bo'ladi".²⁰ Rossiyaning 2022-yilda Ukrainaga keng ko'lamli bostirib kirishi sakkiz yildan beri davom etayotgan mojaroning keskin kuchayishini va Yevropa xavfsizligi uchun tarixiy burilish nuqtasini belgiladi. G'arb yordamini kengaytirib, Ukraina Rossiya hujumining ko'p jihatlarini puchga chiqarishga muvaffaq bo'ldi, biroq uning ko'plab shaharlari vayronaga aylandi va fuqarolarining to'rtidan bir qismi boshqa hududlarga ketishga majbur bo'ldi. Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi zamonaviy xalqaro tizimning asosini tashkil etuvchi hisob-kitoblar va dinamikani hamda Sovuq urush tugaganidan keyin uni asos qilib olgan institutsional mantiqni tubdan o'zgartirdi. Ukraina butun dunyo, jumladan Markaziy Osiyo uchun burilish nuqtasidir.²¹ Ikkinchi jahon urushidan keyin o'rnatilgan zamonaviy dunyo tartiboti shakllanishi yangi bosqichga ko'tarildi. Shunday qilib "Rossiya-Ukraina" urushi ham jamoatchilik fikrini shakllantirib, odamlar orasida turli xil fikrlar va qarashlarni keltirib chiqardi.

Shu o'rinda Turkiyada sodir bo'lgan zilzilani ham keltirib o'tish o'rinli. Sababi bu holat ham jamoatchilik fikrini shakllanishida muhim o'rin tutdi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali hamdardlik chellenjlarida odamlar faol ishtirok etib, qo'lidan kelguncha o'z yordamini berdi. 2023 yil 6 fevral kuni Turkiya janubi-sharqidagi Hatay viloyatida 7,7 va 7,6 magnitudali zilzilalar sodir bolgandi.

Bugun 53 mingdan ortiq odamning hayotiga zomin bolgan dahshatli zilzilalar bolganiga bir yildan oshdi. Zilzila episentri Hatay viloyatida bolgan. Vayronkor zilzila qoshni davlatlar, jumladan Suriya, Livan, Shimoliy Kipr, Kipr Gresiyasi va Iroqda ham sezilgan edi.

Zilzilada Hatay bilan birga Qaxramanmarash, Usmoniya, Adiyaman, Diyarbakir, Shanliurfa, Gaziantep, Kilich, Adana, Malatya va Elazig viloyatlarida ham jiddiy vayronagarchilik va talofatlar qayd etilgan. Zilzila qurbonlari soni 53 537 kishini tashkil etib, yana 107 213 kishi jarohat olgan edi. Turkiyadagi ushbu zilzilada vafot etgan insonlar xotirasiga mamlakatda 7 kunlik motam e'lon qilingan. Malumotlarga ko'ra, tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishda jami 650 ming kishi, jumladan, xorijdan kelgan 11 488 nafar kishi, qidiruv-qutqaruv ishlarida 35 250 nafar ishtirokchi va 142 ming xavfsizlik kuchlari jalb etilgan.

Turkiya rasmiylari vayronkor zilzilani "asr falokati" deb atadi hamda bugun "Asr falokati"ning 1 yilligi munosabati bilan butun Turkiya boylab hayotdan ko'z yumgan

¹⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/rossiyaning-ukrainaga-bosqini-kelib-chiqish-sabablari-va-uning-dunyo-tartibotiga-ta-siri>

²⁰ <https://www.supportscience.uz/index.php/ojmp>

²¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/rossiyaning-ukrainaga-bosqini-kelib-chiqish-sabablari-va-uning-dunyo-tartibotiga-ta-siri>

fuqarolar yodga olindi.²² Bu holatlarning barchasi jamoatchilik ongini tub-tubiga kirib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz \ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi. 2020 uza.uz/
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi \ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. 2021. // uza.uz
3. Mirziyoev SH.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. – T.: O‘zbekiston, 2022
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni.

²² <https://rost24.uz/oz/news/1803>